

## **RESPUBLIKAMIZDA TRANSPORT-LOGISTIKA KLASTERI BO'YICHA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH MASALALARI**

***G'iyasidinov Abdumannob Sharoxidinovich***

*Andijon mashinasozlik instituti,*

*Andijon shahar, O'zbekiston.*

Transport-logistika klasteri mintaqaviy klasterlarning alohida turi bo'lib, ularning infratuzilmaviy kelib chiqishiga ko'ra boshqa mintaqaviy darajadagi iqtisodiy klasterlar va tarmoqlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun asos bo'lib, qo'shma loyihalarni amalga oshirish uchun vaqtincha birlashayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar guruhlari tomonidan iqtisodiy faoliyatni rejalashtirish kabi tushunchani anglatadi. Shuningdek, "klaster" va "sanoat parki", "texnopark", Mamlakatimizda barcha sohalarda logistic xarajatlarni optimallashtirish va ularda boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, soha korxonalarini tarkiban o'zgartirish va ularda ishlab chiqarishda hamda xizmat ko'rsatish jarayonlarini diversifikatsiya qilish, tarmoqda qo'shilgan qiymat zanjirining to'laqonli shakllantirish orqali korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish, shu orqali bandlikni ta'minlash, aholining mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish hamda turmush faravonligini oshirishga katta e'tibor berilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi ham logistika xizmatlari bozorini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarni samarali ijrosini ta'minlash logistik zanjirlarida boshqaruvning takomillashtirishni taqozo etadi. Ko'zda tutilgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi logistik zanjirlarida boshqaruv jarayonlarini modernizatsiyalash orqali korxonalarining raqobatbardoshligini hamda logistik zanjirlarida harajatlar optimallashtirishni ta'minlashga qaratilgan boshqaruv mexanizmlari va modellarini takomillashtirish yo'nalishidagi choratadbirlarni ishlab chiqishni amalga oshirishni taqozo etadi.

Transport klasterini yaratishdan maqsad mintaqaning transport infratuzilmasi va yo'lovchilar aylanmasini ko'paytirish va uning raqobatbardoshligini oshirishdir.

Klaster yondashuvi Germaniya, Finlyandiya, Yaponiya, Xitoy, Hindiston, AQSh va boshqalar kabi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida keng qo'llaniladi. Yevropa Ittifoqi hududida 80 dan ortiq TLC ajratilgan. Ushbu raqam 217 ming km temir yo'llarni (8, 9 ming km tezyurar aloqa), 77, 4 ming km avtomobil yo'llarini, 36 ming km quvur liniyalarini, 325 aeroportlarni o'z ichiga olgan Yevropa Ittifoqi transport tarmog'ining yuqori darajada rivojlanganligi va ko'p tarmoqli ekanligi bilan bog'liq. Shuningdek, bir qator muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilindi. 2006 yil iyul oyida Yevropa Ittifoqi "Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida klasterizatsiyalash uchun Manifest" ni tasdiqladi va qabul qildi, 2007 yil dekabrda

esa "Yevropa klasterlari to'g'risida memorandum" nitasdiqladi va tasdiqlash uchun taqdim etdi, 2008 yil 21 yanvarda Stokgolmda Yevropa prezidentlarining Innovatsiyalar va klasterlar konferensiyasida u nihoyat tasdiqlandi.

Klaster tizimi dunyoning bir qancha yirik davlatlarida o'z samaradorligini namoyish etdi. Masalan, klaster tizimi Frantsiya va Gollandiyada qishloq xo'jaligida qo'llaniladi.

Sloveniyadagi transport-logistika klasteri 2003 yilda tashkil etilgan bo'lib, transport ekspeditsiyasi va yetkazib berish bilan shug'ullanadigan, ta'lim dasturlarini ishlab chiqadigan va havoning ifloslanishi bilan bog'liq muammolarni hal qiladigan 13 ta kompaniya va 3 ta muassasani o'z ichiga oladi. Klasterning asosiy maqsadi uning a'zolariga Yevropa bozorida muvaffaqiyatga erishish uchun keng qamrovli transport va logistika xizmatlarini ko'rsatishga imkon beradigan qulay muhitni yaratishdir.

Yevropada transport-logistika xizmatlarini tashkil etishning klaster shakli sifatida davlat chegaralari bilan yirik xalqaro transport koridorlari kesishgan joylarida transport markazlari asosida shakllangan Danborodadagi Padborg shahridagi chegara TLC-ni ham misol qilib keltirish mumkin. Asosiy tavsiflari: klaster maydoni 5 kv. km, transport, logistika va terminal operatorlari soni 150 ga yaqin, xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar – 50 ga yaqin, ishchilarning umumiy soni 3000 kishidan ortiq. Ishtirokchilarning yaqinligi va norasmiy mahalliy aloqalari, klaster shakllanishining yanada moslashuvchanligi va samaradorligini belgilaydi. Klasterga kiruvchi firmalar va tarmoqlar samaradorligini oshirish, klaster chegaralarini kengaytiradigan yangi korxonalarni rag'batlantirish muhim hisoblanadi.

Finlyandiyada mamlakat bo'ylab logistika tarmog'i bo'lgan Limova transport-logistika klasteri mavjud. Tegishli biznesning rivojlangan tizimining mavjudligi (xizmat ko'rsatish, konsalting va boshqalar) klaster ichida yangi kompaniyalar yaratish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishi va mavjud kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Klaster bir-biridan 80 kilometr radius uzoqlikda joylashgan bir nechta fin kompaniyalari guruhi atrofida shakllandi. Klaster quyidagi logistika korxonalarini birlashtiradi – AlfaRoc, EP-Logistics, LogiSec, Logmaster, Logistikas, Itella; transportekspeditorlik kompaniyalari – Finavia, Innorail; konsalting kompaniyalari Fidacom, Varova; sanoat – Cargotec, Huurre; ilmiy-tadqiqot va ta'lim tashkilotlari; davlat va ma'muriy muassasalar. Bosh kompaniya – TechVilla Technology Center – Hyvinkäada joylashgan.

Yaponiya klasterlarining o'ziga xos xususiyati bu yirik, o'rta va kichik korxonalar o'rtasidagi subpudrat munosabatlar tizimidir. Yaponiya klasteri yetakchi kompaniya maqomiga ega bo'lgan bitta yirik bosh kompaniyadan va unga yaqin joyda joylashgan ikki yoki uch darajadagi subpudratchilardan iborat. Shu bilan

birga, birinchi darajali subpudratchilar bosh kompaniya bilan uzoq muddatli shartnomalar bilan bog'langan. Ikkinchi va keyingi darajadagi yetkazib beruvchilar o'rtasidagi munosabatlar birinchi darajali subpudratchilar tomonidan tartibga solinadi.

Rossiyada transport infratuzilmasini rivojlantirish sohasidagi klaster siyosati bir qator milliy va mintaqaviy strategiyalarda, rivojlanish dasturlarida, xususan, 2020 yilgacha bo'lgan davrda Rossiya Federatsiyasini uzoq muddatli rivojlantirish konsepsiyasida, 2030 yilgacha bo'lgan davrda Rossiyaning transport strategiyasida, amalga oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyalarda aks ettirilgan. Rossiya temir yo'llari multimodal transport-logistika markazlaridan foydalangan holda klasterli yondashuvga asoslangan xalqaro transport koridorlari faoliyatini tashkil etish metodikasini ishlab chiqdi.

Qozog'iston Respublikasining 2020 yilgacha istiqbolli milliy klasterlarini shakllantirish konsepsiyasida mahalliy klasterlarning global ta'minot zanjirlariga kirishi ko'zda tutilgan, bu esa milliy texnologik xavfsizlik darajasini sezilarli darajada ko'taradi, iqtisodiy o'sish sifatini yaxshilaydi va klasterlarning bir qismi bo'lgan biznesning xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Mamlakatimizda transport-logistika klasterlarini rivojlantirish uchun potentsialdan foydalanish samaradorligini oshirish zarurati iqtisodiyotning raqobatdoshligi va diversifikatsiyasini oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda yetakchi rolni yuklarni muqobil transport turlariga ko'chirish uchun chegara temir yo'l stansiyalarida xalqaro transport koridorlari kesishmasida yaratilishi kerak bo'lgan transport-logistika klasterlari o'ynaydi.

Umuman olganda, transport-logistika klasteri bo'yicha xorij tajribalari va uni Ozbekistonda qo'llash amaliyoti boyicha quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- moddiy oqimlarni shakllantiruvchi, iste'mol qiluvchi, qayta shakllantiruvchi bozor sub'yektlarini yani ishlab chiqaruvchilarni, istemolchilarni, tijorat vositachilarini;
- yer usti, suv, havo transport turlarining faoliyati bilan shug'ullanuvchi transport kompaniyalarini;
- ekspeditor-kur'yerlik, ekspeditor-agentlik, brokerlik, aralash yuk tashish operatorlik faoliyatlari, ekspeditorlik kompaniyalari;
- omborxonalar komplekslari, taqsimlash markazlari va terminallarni;
- kichik sanoat zonalarini, texnoparklar, innovasion markazlarni;
- institusional organlar (transport vazirligi, avtomobil va daryo transporti agentligi, bojxona qo'mitasi, sanitar-epidemiologiya va veterinary nazorat xizmati);
- yordamchi mutaxassislar yani sug'urta kompaniyalari, ilmiy-tekshirish tashkilotlari, xodimlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlari, konsalting va analitik tashkilotlar, marketing tashkilotlari;

– transport vositalariga xizmat ko'rsatuvchi texnik yordam ko'rsatuvchi korxonalar, yo'l-transport kompaniyalari, servis xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlari.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Titov A.V., Volinskiy I.A. Evropada transport-logistika klasterlarini yaratish xususiyatlari. Astraxan davlat texnika universiteti xabarnomasi. Ser.: Dengiz muhandisligi va texnologiya. 2015. № 4. S. 103-108.
2. Karrieva Y.K., Ibragimov.F.A. Ozbekistonda klasterlar faoliyatini innovatsion rivojlantirishda logistikani qollaash. Biznes Ekspert jurnal. №5, 2019 yil.
3. Evropa Ittifoqi transporti. Statistical Pocket Book 2019. [Elektron resurs]. URL: <https://op.europa.eu/en/publication-detail/-/publication/f0f3e1b7-ee2b-11e9-a32c-01aa75ed71a1>
4. Samatov, G. A., and Giyasidinov A. Sh. "Increasing the export potential of fruit and vegetable products in Uzbekistan and simplifying the procedure for its transportation." International Engineering Journal For Research & Development 5.3 (2020).
5. Sh, Giyasidinov A., et al. "E-CMR-an impulse to innovative development of the transport industry. International Engineering Journal For Research & Development, 5 (4), 6–6." (2020).
6. Икромов Н. А., Гиясидинов А. Ш., Рузиматов Б. Р. У. Меры по снижению экологического воздействия автопарка //Universum: технические науки. – 2021. – №. 4-1 (85). – С. 44-47.
7. G'iyasidinov Abdumannob, & Samatov Gaffor. (2022). Improving the activity of transport and logistic clusters in increasing exports of agricultural products. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 8(6), 64–67.
8. Giyosidinov A.Sh., & Muhammadaliev S.F. (2022). Methodology of selection of efficient moving structure for transportation of fast destructive loads. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 8(6), 68–72.
9. Шарохинович Ф. А. Эффективность транспортировки и грузопереработки экспорта-импорта продуктов питания //World of Science. – 2023. – Т. 6. – №. 4. – С. 594-599.
10. Kuchkorov, Isroiljon Analysis of available parking spaces in foreign countries of transit roads for cargo transportation by international vehicles // orienss. 2022. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/analysis-ofavailable-parking-spaces-in-foreign-countries-of-transit-roads-for-cargo-transportation-byinternational-vehicles> (дата обращения: 01.11.2022).